



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayeovich, To'xtayev Kamol Po'latovich	



MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI

Xojiyev Jaxongir Dushabayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrası dotsenti, PhD

ORCID: 0000-0003-3253-2119

E-mail: xojiyevjaxongir1@gmail.com

To'xtayev Kamol Po'latovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

E-mail: toxtayevkamol56@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada moliyaviy risklarni boshqarish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Big Data asosidagi yondashuvlarning kredit, bozor, operatsion va boshqa moliyaviy risklarni aniqlash hamda baholashdagi ustunliklari yoritiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy risklarni boshqarish, sun'iy intellekt, Big Data, kredit riski, bozor riski, operatsion risk.

Abstract. This scientific article analyses the possibilities of applying artificial intelligence technologies in financial risk management processes. It highlights the advantages of Big Data-based approaches in identifying and assessing credit, market, operational, and other types of financial risks.

Key words: financial risk management, artificial intelligence, Big Data, credit risk, market risk, operational risk.

Аннотация. В данной научной статье анализируются возможности применения технологий искусственного интеллекта в процессах управления финансовыми рисками. Освещаются преимущества подходов, основанных на Big Data, при выявлении и оценке кредитных, рыночных, операционных и иных финансовых рисков.

Ключевые слова: управление финансовыми рисками, искусственный интеллект, Big Data, кредитный риск, рыночный риск, операционный риск.

KIRISH

So'nggi yillarda global moliya tizimining jadal rivojlanishi natijasida, shuningdek, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda moliyaviy bozorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi moliyaviy risklarning ko'lamini va murakkabligini sezilarli darajada oshirdi. Kredit operatsiyalarining kengayishi, yangi moliyaviy instrumentlarning paydo bo'lishi va tranzaksiyalar hajmining keskin ortishi sharoitida moliyaviy risklarni samarali boshqarish moliyaviy institutlar faoliyatining muhim strategik yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, kredit, bozor va operatsion risklar banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlarning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy holda moliyaviy risklarni boshqarish amaliyoti asosan statistik modellar va tarixiy ma'lumotlar tahliliga tayangan yondashuvga asoslangan bo'lib, ular ko'pincha chiziqli bog'liqlikni hisobga oladi. Biroq, zamonaviy moliyaviy muhit yuqori darajadagi noaniqlik, ko'p omillilik va tezkor ma'lumotlar o'zgaruvchanligi bilan tavsiflanadi. Natijada an'anaviy moliyaviy risklarni boshqarish tizimi real vaqtda yuzaga kelayotgan risklarni aniqlash va baholashda yetarli darajada moslashuvchanlikka ega emasligi ko'rinadi. Bu esa moliyaviy risklarni boshqarishda yangi, innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda ushbu muammolarni hal etishda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish muqobil va istiqbolli yechim sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, Big Data tahlillari katta hajmdagi ma'lumotlarni chuqur tahlil qilishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalar moliyaviy risklarni nafaqat aniqlash, balki ularning yuzaga kelish ehtimolini bashorat qilish va monitoring qilishda ham yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Xususan, Big Data asosidagi moliyaviy yondashuvlar moliyaviy institutlarga millionlab tranzaksiyalar,



mijozlarning xulq-atvori, bozor signallari va tashqi axborot manbalarini bir vaqtning o'zida tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa kredit riskini baholashda qarz oluvchilarning to'lovga layoqatligini yanada aniqroq aniqlash, bozor risklarini real vaqt rejimida kuzatib borish hamda operatsion risklarni, jumladan, firibgarlik holatlarini erta aniqlash imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish bo'yicha qator muhim institutsional va iqtisodiy chora-tadbirlar belgilab olindi. Jumladan, sun'iy intellekt infratuzilmasiga yirik sarmoya kirituvchi investorlar uchun energetika va investitsion rag'batlar joriy etilishi, IT-park imtiyozlarining kengaytirilishi, import qilinadigan texnologik uskunalarni bojxona to'lovlaridan ozod etish, davlat ma'lumotlar bazalarini yagona "Data-markaz"ga o'tkazish hamda ta'lim tizimida sun'iy intellektga oid mavzularni bosqichma-bosqich joriy etish vazifalari belgilandi. Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi moliyaviy risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rnini nazariy jihatdan asoslash hamda Big Data asosidagi yondashuvlarning kredit, bozor va operatsion risklarni aniqlashdagi ustunliklarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari moliyaviy risklarni boshqarish sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy risklarni boshqarish uzoq yillardan buyon iqtisodiyot fanidagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlarda moliyaviy risklarni tasniflash, ularni aniqlash va baholash metodologiyalarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [1].

S.S. Togayevning "Bank risklari" nomli o'quv qo'llanmasida moliyaviy risklarning mohiyati, ularning bank faoliyatiga ta'siri hamda risklarni boshqarishning an'anaviy mexanizmlari tizimli ravishda yoritilgan. Ushbu manbada kredit, bozor va operatsion risklarni baholashda statistik va klassik yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan [1].

Abdiyev O. tomonidan e'lon qilingan ilmiy maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarishdagi ayrim amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan bo'lib, unda mavzuga oid yangicha yondashuvlar taklif etilgan. Biroq, mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarini moliyaviy risklarni boshqarishning integratsiyalashgan tizimi sifatida qo'llash masalalari yetarli darajada chuqur ochib berilmagan [2].

Li tomonidan olib borilgan tadqiqot sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarishda muhim strategik vosita ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Muallif bashoratli tahlil, mashinaviy o'rganish va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish mexanizmlarining risklarni boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi [3].

Mubarroq va hammualliflar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarishda an'anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligi ko'rsatilib, ularni kredit, bozor va operatsion risklarni boshqarish tizimlariga integratsiyalash zarurati ilmiy asoslangan [4].

Safarli tomonidan e'lon qilingan maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risk tahlilida qo'llanilishi, murakkab moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash, bashoratli tahlil va monitoring tizimlari orqali risklarni aniqlash samaradorligini oshirish imkoniyatlari ilmiy asosda yoritilgan [5].

Ko'rib chiqilgan ilmiy adabiyotlar moliyaviy risklarni boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyati alohida risk turlari yoki individual texnologik yechimlarga qaratilgan bo'lib, sun'iy intellektni moliyaviy risklarni boshqarishning yagona va integratsiyalashgan tizimi sifatida joriy etish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab, tanlangan mavzuning ilmiy ahamiyatini asoslaydi [1–5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va boshqarishda qo'llanish imkoniyatlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot asosan sifat tahliliga asoslanib, unda an'anaviy risklarni boshqarish yondashuvlari hamda sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar o'rtasidagi farqlar taqqoslash va solishtirish usullari orqali tahlil etiladi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil, umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan ham foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Risk tushunchasi moliyaviy faoliyatning deyarli barcha yo'nalishlarini qamrab olib, turli shakl va darajalarda namoyon bo'ladi. Mazkur xilma-xillik risklarga bo'lgan yondashuvni murakkablashtirib, ularni baholashda yagona va soddalashtirilgan usullarning yetarli emasligini ko'rsatadi. Moliyaviy muhitda axborot oqimining ortishi hamda jarayonlarning tezlashuvi risklarni an'anaviy usullar orqali kuzatish va nazorat qilishni qiyinlashtirmoqda. Shu



sharoitda sun'iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va yashirin bog'liqliklarni aniqlash imkoniyati orqali risklarni anglash doirasini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Natijada risklarni baholash jarayoni alohida ko'rsatkichlarga tayanishdan tizimli va dinamik yondashuvga o'tmoqda. Bu holat moliyaviy risklarni boshqarishda yangi texnologik yechimlarga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar asosida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarish jarayonlariga joriy etilishi nafaqat risklarni aniqlash aniqligini oshiradi, balki boshqaruv jarayonlarining tezkorligi va moslashuvchanligini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Ilmiy manbalarda qayd etilganidek, ayniqsa katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlovchi moliyaviy institutlarda sun'iy intellekt asosidagi modellar an'anaviy yondashuvlarga nisbatan ustun natijalar namoyon etmoqda.

Birinchidan, kredit riskini boshqarish jarayonlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kreditga layoqatlilikni baholash usullarini sezilarli darajada takomillashtiradi. An'anaviy kredit baholash tizimlari ko'pincha cheklangan moliyaviy ko'rsatkichlarga tayanadi. Sun'iy intellekt asosidagi modellar esa qarz oluvchilarning moliyaviy xatti-harakatlari, to'lov intizomi va boshqa bilvosita omillarni kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Natijada kredit defolti ehtimolini oldindan aniqlash aniqligi oshadi.

Ikkinchidan, bozor risklarini boshqarish sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi moliyaviy bozorlarning dinamik holatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini yaratadi. Sun'iy intellekt asosidagi modellar bozor narxлари, foiz stavkalari va boshqa moliyaviy indikatorlardagi tebranishlarni tezkor tahlil qilib, potensial xavf-xatarlarni oldindan aniqlashga yordam beradi. Bu esa moliyaviy institutlarga investitsiya va risklarni kamaytirish strategiyalarini o'z vaqtida moslashtirish imkonini beradi.

Uchinchidan, operatsion risklarni boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalari jarayonlarni avtomatlashtirish hamda inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirish imkonini beradi. Tranzaksiyalarni doimiy monitoring qilish va g'ayrioddiy holatlarni aniqlash orqali firibgarlik hamda texnik nosozliklar bilan bog'liq risklar samarali nazorat qilinadi. Bu holat moliyaviy institutlarning umumiy operatsion barqarorligini oshiradi.

To'rtinchidan, risklarni integratsiyalashgan holda boshqarish imkoniyati sun'iy intellekt texnologiyalarining muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Kredit, bozor va operatsion risklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va ularni yagona tizim doirasida baholash moliyaviy risklarning umumiy darajasini yanada aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

Kengaytirilgan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarishga joriy etilishi boshqaruv tizimining mantiqiy tuzilishini ham qayta shakllantiradi. Ya'ni, risklar endilikda alohida hodisalar sifatida emas, balki o'zaro bog'liq va dinamik tizim elementi sifatida ko'rib chiqiladi.

Quyidagi jadvalda tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar asosida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash orqali erishish mumkin bo'lgan asosiy imkoniyatlar va ularning samaradorligi keltirilgan. Ushbu yondashuvlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar darajasini pasaytirish va potensial zararlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining muhim natijalaridan biri resurslardan samarali foydalanish imkoniyatining kengayishidir. Avtomatlashtirilgan risk monitoringi va tahlil tizimlari inson resurslariga bo'lgan ehtiyojni optimallashtirib, xodimlarni yuqori darajadagi tahliliy va strategik vazifalarga yo'naltirish imkonini beradi. Bu esa boshqaruv xarajatlarini kamaytirish bilan birga, umumiy samaradorlikni oshiradi (1-jadval).

1-jadval. Moliyaviy risklarni boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy natijalari

Risk turi	SI qo'llanishi natijasi	SI samaradorligi
Kredit riski	Kompleks baholash va prognozlash	Defolt ehtimolini aniqlash aniqligi oshadi
Bozor riski	Real vaqt monitoringi	Bozor tebranishlariga tezkor javob
Operatsion risk	Avtomatlashtirilgan nazorat	Firibgarlik va xatoliklar kamayadi
Integratsiyalashgan risk	Yagona tahlil tizimi	Umumiy risk profili aniqligi oshadi

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy ustunligi murakkab risk muhitida qaror qabul qilish jarayonlarini samarali qo'llab-quvvatlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Moliyaviy muhitda ko'p omilli va tez o'zgaruvchi vaziyatlarda inson tomonidan barcha ehtimoliy ssenariylarni bir vaqtning o'zida to'liq baholash qiyin hisoblanadi. Sun'iy intellekt esa turli ssenariylarni modellashtirish orqali qaror qabul qiluvchilarga eng maqbul variantlarni taklif etish imkonini beradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish risklarni boshqarish madaniyatining sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladi. Risk-boshqaruv jarayoni endilikda faqat nazorat mexanizmi sifatida emas, balki tashkilot doirasida tahliliy fikrlash hamda ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish madaniyatini shakllantiruvchi muhim boshqaruv elementi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy institutlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.



Biroq sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda muayyan institutsional cheklovlar ham mavjud. Texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ma'lumotlarni boshqarish tizimlarining zaifligi hamda xodimlar malaka darajasining pastligi sun'iy intellekt texnologiyalarining to'liq samaradorligini cheklashi mumkin. Shu sababli, texnologik yechimlarni joriy etish bilan bir qatorda tashkiliy tuzilma va kadrlar siyosatini ham uyg'un holda rivojlantirish zarur.

Umumiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarish tizimlariga tatbiq etilishi qisqa muddatli texnologik yutuq emas, balki uzoq muddatli strategik transformatsiya jarayoni hisoblanadi. Shu bois, moliyaviy institutlar ushbu texnologiyalarni bosqichma-bosqich, inson nazorati va institutsional tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirgan holda joriy etishi eng maqbul yondashuv sifatida qaraladi.

Birinchi navbatda, sun'iy intellekt texnologiyalarining ustunligi ma'lumotlar hajmi va ularning xilma-xilligini qayta ishlash imkoniyatida namoyon bo'ladi. An'anaviy modellar asosan cheklangan tarixiy ma'lumotlarga tayangan bo'lsa, sun'iy intellekt algoritmlari tizimli va tizimsiz ma'lumotlarni birlashtirib, risklarni kompleks baholash imkonini yaratadi. Bu holat ayniqsa kredit va operatsion risklarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi muhim jihat sun'iy intellekt tizimlarining moslashuvchanligi va o'rganish qobiliyatidir. Tahlil qilingan manbalarga ko'ra, sun'iy intellekt modellarining o'z-o'zini o'rganish xususiyati risklarning tez o'zgarib borayotgan sharoitlariga moslashish imkonini beradi. Natijada moliyaviy institutlar risklarni faqat reaktiv emas, balki proaktiv tarzda boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Reaktiv boshqaruv risklar yuzaga kelgandan keyin ularning oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan bo'lsa, proaktiv boshqaruv risklarning yuzaga kelish ehtimolini oldindan aniqlash, ularni prognozlash va salbiy oqibatlarining oldini olish choralari ko'rishga asoslanadi.

Bundan tashqari, ma'lumotlar sifati va axloqiy masalalar ham muhim ahamiyatga ega. Agar tarixiy ma'lumotlarda noto'g'ri yoki diskriminatsion tendensiyalar mavjud bo'lsa, sun'iy intellekt modellarining ushbu holatlarni kuchaytirib yuborish xavfi yuzaga keladi. Shu sababli, sun'iy intellekt asosidagi risk-boshqaruv tizimlarini joriy etishda inson nazorati, shaffoflik va normativ-huquqiy mexanizmlar bilan uyg'unlik muhim hisoblanadi.

Tahlil natijalari moliyaviy risklarni boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlashini ko'rsatadi. Biroq ularni muvaffaqiyatli joriy etish texnologik infratuzilma, kadrlar salohiyati va huquqiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, kelgusida sun'iy intellekt va an'anaviy risk-boshqaruv yondashuvlarini integratsiyalashgan holda qo'llash eng maqbul model sifatida namoyon bo'ladi.

Quyidagi jadvalda sun'iy intellekt asosidagi risk-boshqaruv tizimlarining an'anaviy tizimlarga nisbatan asosiy farqlari umumlashtirilgan.

2-jadval. An'anaviy va sun'iy intellekt asosidagi moliyaviy risk-boshqaruv tizimlarining taqqoslanishi

Mezoni	An'anaviy yondashuv	SI asosidagi yondashuv
Ma'lumotlar turi	Asosan tarixiy va tizimli	Tizimli va tizimsiz Big Data
Risklarni baholash	Davrli	Real vaqt rejimida
Moslashuvchanlik	Past	Yuqori (o'z-o'zini o'rganish)
Qaror qabul qilish	Inson omiliga bog'liq	Avtomatlashtirilgan va qo'llab-quvvatlovchi
Xatolik ehtimoli	Nisbatan yuqori	Nisbatan past

Shuningdek, moliyaviy risklarni boshqarishda proaktiv yondashuvning shakllanishi sun'iy intellekt texnologiyalarining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Risklar endilikda faqat yuzaga kelgandan keyin baholanadigan hodisa sifatida emas, balki oldindan aniqlanishi va doimiy nazorat qilinishi mumkin bo'lgan jarayon sifatida qaralmoqda. Mazkur yondashuv moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim strategik ustunlikni vujudga keltiradi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi moliyaviy risklarni alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizim elementi sifatida ko'rib chiqish imkonini bermoqda. Kredit, bozor va operatsion risklar o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni aniqlash umumiy risk profilini yanada aniqroq va ishonchli shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi qaror qabul qilish jarayonida inson omilining rolini qayta talqin qilishga olib kelmoqda. Texnologik yechimlar mutaxassislarni to'liq almashtirmaydi, balki ularning analitik salohiyatini kengaytiruvchi va qaror qabul qilish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Eng yuqori samaradorlik inson tajribasi va sun'iy intellekt asosidagi tavsiyalar o'zaro uyg'unlashgan sharoitda ta'minlanadi.



Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini moliyaviy risklarni boshqarish tizimlariga tatbiq etish texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda yetarli darajadagi institutsional tayyorgarlikni ham talab etadi. Ma'lumotlar sifati, tashkiliy infratuzilma va kadrlar salohiyati yetarlicha rivojlanmagan sharoitda ushbu texnologiyalarning potentsiali to'liq namoyon bo'lmashligi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellektga asoslangan risk-boshqaruv tizimlarini joriy etish kompleks va muvozanatli yondashuvni taqozo etadi.

Umuman olganda, olingan natijalarning talqini moliyaviy risklarni boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish uzoq muddatli strategik transformatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanini ko'rsatadi. Ushbu transformatsiya moliyaviy institutlarning barqarorligi, moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy risklarni boshqarish zamonaviy moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, murakkab va ko'p omilli jarayonni ifodalaydi. Iqtisodiy muhitdagi noaniqliklar, moliyaviy instrumentlarning xilma-xilligi hamda axborot oqimining tezlashuvi risklarga bo'lgan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu sharoitda risklarni baholash va boshqarish masalasi faqat texnik vazifa sifatida emas, balki strategik boshqaruvning muhim elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarish jarayonlariga joriy etilishi risklar bilan ishlashda yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, murakkab bog'liqliklarni aniqlash va dinamik jarayonlarni kuzatish imkoniyati risklarni baholash yondashuvlarini sifat jihatidan o'zgartirmoqda. Natijada risklar alohida ko'rsatkichlar majmui sifatida emas, balki o'zaro bog'liq va doimiy rivojlanib boruvchi jarayon sifatida talqin etilmoqda.

Moliyaviy risklarni boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish inson omilining rolini ham yangi bosqichga olib chiqadi. Texnologik yechimlar mutaxassislarning qaror qabul qilish jarayonini to'ldiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida shakllanib, ularning analitik salohiyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, boshqaruv qarorlarining yuqori sifatda bo'lishi texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda institutsional tayyorgarlik va boshqaruv madaniyatiga ham chambarchas bog'liq bo'lib qolmoqda.

Sun'iy intellektga asoslangan risk-boshqaruv tizimlarini joriy etish texnologik infratuzilma, ma'lumotlar sifati va kadrlar salohiyati bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu omillar yetarli darajada uyg'unlashmagan sharoitda texnologiyalarning to'liq samarasi namoyon bo'lmashligi mumkin. Shu sababli, moliyaviy risklarni boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi kompleks va bosqichma-bosqich yondashuvni talab etadi.

Umuman olganda, moliyaviy risklarni boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi moliyaviy institutlarning barqarorligi, moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi uzoq muddatli transformatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon risklarga bo'lgan an'anaviy qarashlarni qayta shakllantirib, moliyaviy boshqaruv tizimlarining kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdiyev, O. (2025). Sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarishdagi xalqaro va milliy amaliyoti. *Green Economy and Development*, 3(12).
2. Li, B. (2025). The role of artificial intelligence in financial risk management. *Advances in Economics, Management and Political Sciences*, 158(1), 110–117.
3. Mubarroq, M. T., Suharto, & Syafii, M. (2025). The role of artificial intelligence in risk management for financial institutions. *Optimal: Jurnal Ekonomi dan Manajemen*, 5(1), 533–545.
4. Safarli, X., & Z., N. (2025). Artificial intelligence in financial risk analysis: Theory and practice. *Professional Bulletin: Economics and Management*, 1, 46–53.
5. Togayev, S. S. (2019). Bank risklari. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://www.president.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>